



ARGENTINADA INFLATSIYA DARAJASINING OSHISHINI PESTLE USULDA TAHLILI QILISH

Yo'ldosheva Zebinisobegim Farrux qizi

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar fakulteti

0-1a-24 J.I.X.I.M

e-mail: z91262501@gmail.com

***Annotatsiya:** Maqola so'ngi 4 yillik ichida Argentinadagi inflyatsiya bo'yicha bo'lgan barcha o'zgarishlarni tahlil qiladi. Mamlakatdagi o'ta yuqori inflyatsiya darajasini o'rganishda PESTLE tadqiqot usuli samarali hisoblanadi va ushbu masalani o'rganib chiqadi. Pul qadrsizlanishiga o'z ta'sirini o'tkazishda muhim ahamiyat kasb etadigan yo'nalishlar: siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, huquqiy va ekologik holatlarning o'lchov va sifatlardan foydalanilgan holda o'rganadi.*

***Kalit so'zlar:** Inflyatsiya, pul qadrsizlanishi, Markaziy Bank, siyosat, giperinflyatsiya, foiz stavkalari, iqtisodiy muammolar, tashqi investitsiya.*

Kirish

Argentinaning oxirgi yillardagi eng dolzarb muammosi yuqori inflyatsiya darajasi hisoblanib, davlatni iqtisodiy inqiroz tomon yetaklamoqda. Inflyatsiya har bir mamlakatda iqtisodiy barqarorlikning asosiy bo'g'imi bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli ham uning meyoridan ortiq o'sishi iqtisodiyot rivojiga salbiy ta'sir qiladi. Argentina oxirgi yillarda juda ham yuqori inflyatsiya bilan yuzlashmoqda . Argentinadagi so'nggi 4 yillik inflyatsiya darajasini ko'radigan bo'lsak :



2021-yil: Yillik inflyatsiya 50,9%bo'lgan

2022-yil: Yillik inflyatsiya 94,8% bo'lib, aynan shu yili bu foiz stavkasi oxirgi 30 yillik tarixida eng yuqorisi bo'ldi.

2023-yil: Yillik inflyatsiya 211% atrofida

2024-yil: Yillik inflyatsiya 117,8%

Pandemiya qolgan mamlakatlar kabi Argentina iqtisodiyoti va inflyatsiyasiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Hukumat bu holatni to'g'irlash maqsadida iqtisodiy choralar ko'rdi ammo quyidagi berilgan statistikaladan ham ko'rish mumkinki, bu inflyatsiyani yanada oshishiga olib keldi.

Adabiyotlar tahlili

Ushbu maqola Argentinaning inflyatsiya darajasini 2004-2020 yillar oralig'ida Kalman filtri yordamida tahlil qilgan Ernesto Gabriel Pizarro Levi maqolasini va turli tadqiqodchilar ilmiy ishlarni o'rganish asosida yozildi. Argentina inflyatsiyasi haqida ilmiy izlanishlar olib borgan asosiy iqtisodchi olimlar Heymann, Leijonhufvud va Rudiger Dornbusch kabi insonlar hisoblanadi.

Guillermo Heymann Argentina inflyatsiyasi, pul-kredit siyosatini va iqtisodiy inqirozlar sababini o'rgangan. Uning fikricha Argentina keskin defitsitni maksimal darajada qisqartirsa ham, inflyatsiya xavfi yo'qolmaydi. Heymann bilan hamkorlikda birga Argentina inflyatsiyasi va iqtisodini o'rgangan Leijonhufvud, inflyatsiyani faqatgina ish haqi, narxlar ko'tarilishi va pul massasini oshishini sifatida ko'rmagan.



Dornbusch (1970-1990) esa Argentinada kredit inqirozi va inflyatsion bosimning o'zaro bog'liq zanjir sifatida tahlil qilgan.

Tadqiqot Metodologiyasi

Maqolaning asosiy usuli - PESTLE tadqiqot usuli hisoblanib, bu Argentinadagi pul qadrsizlanishini asosiy olti omilini chuqur tahlil asosida o'rganadi va siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, huquqiy va ekologik yo'nalishlarda kamchiliklarni ko'rsatib beradi. Ushbu usul inflyatsiyaning mamlakatdagi ta'sirini kamaytirish va bu muammoni yechishda yordam beruvchi muqobil tadqiqot usulidir.

Natija


Argentina inflyatsiyasiga siyosiy beqarorlik, ma'sul shaxslarning noto'g'ri iqtisodiy siyosati va ortiqcha pul emissiyasi yaqqol sabab bo'ldi. Davlatning byudjet defitsiti va tashqi qarzlarning ortishi iqtisodiy beqarorlikni kuchaytirib, texnologik rivojlanish va mamlakat rivojiga o'z hissasini qo'shadigan investitsiya oqimini ham kamaytirib yubordi. Hukumat va Markaziy Bank narxlarning o'zgarishini qat'iy nazoratga olishi va yangi islohotlar bilan chiqishi lozim, shunda inflyatsiya darajasi o'sishi to'xtab, xalqda ham yashash uchun qulay imkoniyatlar paydo bo'ladi.


Siyosiy islohotlar natijalariga to'xtaladigan bo'linsa, Iqtisodiy siyosatda davlat aralashuvi me'yoridan ortiq va beqaror harakatlar mavjudligi aynan shu inqirozlarga sabab edi. Biroq keltirilgan muammolar o'z cho'qqisiga chiqqan payt, 2023-yilda bo'lib o'tgan prezidentlik saylovi o'zgarishlarga eshik ochdi. Javier Milei o'zini libertar siyosatchi sifatida ko'rsatdi va iqtisodiyotni kuchgaytirishga



bor kuchini sarflashini ma'lum qildi. Saylovdan so'ng Milei iqtisodiyotni rivojlantirishga va davlat korxonalarini xususiylashtirishga bor e'tiborini qaratdi. 2024-yilda hukumat iqtisodiy inqirozlatni kamaytirishga harakat qilmoqda (qattiq tejamkorlik choralari orqali) biroq, bu muammolar butunlay hal bo'lgani yo'q. Buning uchun yetarlicha vaqt va birdamlik kerak.

Iqtisodiy tarafdin olib borilgan ishlarda, Argentina Markaziy Banki yuqori darajadagi pul emissiyasi bilan inflyatsiyani oshishiga sabab bo'ldi. Hukumat budjet taqchilligini qoplash maqsadida Markaziy Bankdan ortiqcha pul bosib chiqarishda davom etaverdi, bu esa pul birligi qadrsizlanishiga olib keldi. Ikkinchidan, mamlakat byudjeti doimiy defitsitda bo'lib, davlat boshqaruvchilari ko'p miqdorda ichki va tashqi qarz oldi. 2021-yilda Argentinani tashqi qarzi tahminan 269 milliard AQSH dollarini tashkil qildi. Bu mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbatan 77%ni tashkil etadi. Keyingi yillardagi tashqi va ichki qarzlar yanada oshadi va 2024-yilga kelib bu narx 282,7 milliard dollarni tashkil qiladi, bu esa mamlakat ahvolini yanada o'g'irlashtiradi.





1-rasm: yozuvchi ishlanmasi

Keyingi texnologik omillar ham quyidagi keltirilgan xususiyatlar kabi Argentina davlatining inflyatsiya darajasiga o'zining ta'sirini o'tkazmay qolmagan. 2021-2024 yillarda inflyatsiyaga bevosita ta'sir qilgan omillardan biri raqamli infratuzilma va elektron to'lov turlarini ommalashuvidir. Keltirilgan yillarda Argentina Markaziy Banki online to'lov usullarini yanada rivojlantirdi va 2022-yilda bundan avvalgi yillarga qaraganda elektron to'lovlar 45%ga o'sdi. Buning natijasida, ba'zi tovarlarga talab oshib, narxlarni keskin ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Shu bilan bir vaqtda, COVID-19dan keyin global ta'minot tarmog'idagi uzilishlar Argentinada texnologik mahsulotlar va avtomatlashtirilgan tovarlarni ishlab chiqaruvchi qurilmalarni qimmatlashuviga sabab bo'ldi. 2021-yilda kompyuter va telekommunikatsiy mahsulotlari narxi 63%ga oshdi, bu esa ishlab chiqarishning tannarxiga va yakuniy mahsulotning narxiga ta'sir qildi.

Argentina Raqamli Infratuzilma Investitsiyalari (2021-2024)




Grafik Argentina iqtisodiyotida raqamli infratuzilmaga yo'naltirilgan sarmoyalar o'sishini ko'rsatmoqda. 2021-yilda 5.2 milliard dollar bo'lgan investitsiyalar 2024-yilda 8.3 milliard dollarga yetgan. Bu jarayon raqamli iqtisodiyotning kengayishi va innovatsion texnologiyalarga bo'lgan talabning ortib borishi bilan bog'liq.

2-rasm: yozuvchi ishlanmasi

Atrof- muhit hodisalari sifatida inflyatsiyaga va mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatadigan holatlar: qurg'oqchilik, suv toshqinlar va shu kabilar misol bo'la oladi. Argentinaning 60 yillik tarixida eng kuchli qurg'oqchilik 2022-2023-yillarda sodir bo'ldi. Postdan iqlim ta'sirini o'rganuvchi markaz olib borgan tadqiqodlar natijasi shuni ko'rsatdiki, shu kabi tabiat hodisalari Argentina, Turkiya kabi inflyatsiya darajasi yuqori va doimiy o'suvchi bo'lgan mamlakatlarda yiliga 0,5-1,5 foizga inflyatsiya darajasini oshishiga sabab bo'ladi. Shu yillar oralig'idagi qurg'oqchilik sabab davlatning yirik eksport mahsulotlari: makka, soya va bug'doy kabi ekinlar hosil berish darajasi keskin 40%ga kamaygani haqida ma'lumot berildi.



2023-yilning mart oyida sodir bo'lgan kuchli yomg'ir va suv toshqinlari qishloq xo'jalik tarmoqlarini izidan chiqarib yubordi va logistika xarajatlarini ko'paytirdi. Blanca port shahrida yuz bergan bu hodisada 16 kishi vafot etdi va 1,450 dan ortiq inson evakuatsiya qilindi. Ko'plab kasalxona, yo'llar, tur joylar zarar ko'rdi va vaqtinchalikka elektr ta'minoti o'chirildi. Favqulodda sodir bo'lgan bu ofatdan qolgan asoratlarni to'g'irlash uchun 10 milliard peso (Argentina pul birligi)ni sarfladi.



3-rasm: yozuvchi ishlanmasi

Muhokama

1.Siyosiy omil (political):

Davlatdagi siyosiy beqarorlik inflyatsiyani yanada kuchayishiga sabab bo'ldi. Argentinada ushbu yillarda ya'ni 2023 yilda yangi prezident Javier Milei saylovlarda g'olib bo'lmaguncha, mamlakat aholisida siyosiy norozi kayfiyat kuchaygan va narxlarning o'sishi aholi o'rtasida norozichilik kayfiyatini uyg'otgan.



2021-yildan 2024-yilgacha Argentina Markaziy Banki davlatdagi o'g'ir inflyatsiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etgan. Uning amalga oshirgan islohotlari bu – asosiy stavkalarini bir necha bor oshirish va tushirish orqali inflyatsiyani tartibga solish edi. Prezident almashganidan so'ng Markaziy Bank foiz stavkalarini sakkiz marta pasaytirib, oxirgi marta 2024-yil mart oyida 32% gacha pasaytirdi.

2. Iqtisodiy omillar (economical);

Argentinada inflyatsiyaga ta'sir qiluvchi yana bir omil bu iqtisodiy islohotlardir. Bularga misol tariqasida pul-kredit siyosati, davlat xarajatlari, ish haqi va tashqi omillarni keltirsa bo'ladi. Puxta o'ylab chiqilmagan mamlakat iqtisodiyoti, aholi va davlatning mablag' jihatda qiyinchiliklarga yuzlanishiga sabab bo'ldi.

3. Ijtimoiy omillar (social);

Ijtimoiy omillar ham Argentina inflyatsiyasida muhim rol o'ynadi. Aholining katta qismi qashshoqligi, norasmiy sektorlarda ishlashi ya'ni insonlar rasmiy iqtisodiyotni tark etib, naqd pulga asoslangan yo'lni tanlashi pul aylanmasini barqaror bo'lishiga yo'l qo'ymadi. Shu sababli bu holat ko'plab yerlarda ish tashlashga sabab bo'ldi. Boshqa tarafdin, odatda hukumat tarafdin beriladigan energiya va transport subsidiyalarining kamayishi, aholi uchun harajatlarni oshirdi va murakkabliklar tug'dirdi.

Shu jumladan, narxlar nazorati ham yetarli darajada bo'lmadi. Hukumat ba'zi bir mahsulotlar va xizmatlar narxlarini belgilashga harakat qilgan bo'lsada, bu choralar yetarli bo'lmadi va narxlar ko'tarilishda davom etaverdi.



4. Texnologik omillar (Technological);

Narxlarning oshishiga energiya sohasi uchun yetarli bo'lmagan investitsiyalar va texnologik mahsulotlar ishlab chiqarilishidagi kechikuvlar ham xizmat qildi. Chunki qancha uzoq vaqt mahsulot ishlab chiqarilishi uchun sarflansa, shuncha ko'p energiya ham talab etiladi. Hozirgi tez rivojlanayotgan dunyoda, zamon standartlariga mos texnologik vositalarni ishlab chiqarish katta kuchni talab etadi.

5. Huquqiy omillar (legal)

Muhim qonunchilik va huquqiy qarorlarning bir qancha yo'nalishlari, misol uchun soliq siyosati, mehat qarorlari va kichik, o'rta korxonalarni qo'llab quvvatlash xizmatlari inflyatsiyaga ta'sir qilmay qolmaydi. 2022-yil hukumat import bo'yicha yangi soliq tartib qoidalarini joriy etish orqali mahsulotlar tannarxini oshishiga saba

Shu bilan birga, Ish haqqini doimiy ravishda oshishi narxlarning ham oshishiga sabab bo'ldi. Ishchilar natijada yuqori inflyatsiya tufayli haqiqiy daromadlarini pasaymasligi uchun yanada yuqori ish haqqi talab qilishdi. Natijada bu huddi bir-biriga ulangan zanjir kabi holatni davomiy bo'lishiga xizmat qildi. 2023-yildagi yangi soliqlar: 30% lik qo'shimcha daromad solig'i, ishlab chiqaruvchilar uchun bosimni oshirdi.

Investorlarning uchun belgilangan qonunlarga qaraladigan bo'lsa, 2023-yilda Argentina hukumati davlat obligatsiyalari bo'yicha to'lovlarini o'z vaqtdan kechiktirib to'lashga qaror qildi. Bu esa xalqaro maydondagi investorlarni ishonchini pasaytirdi va milliy valyuta qadrsizlanib, inflyatsiya kuchaydi.

6. Atrof-muhit omillari (environmental)



Tabiatning kutilmagan, hech qanday qonun va rejalarga asoslanmagan hodisalarini mamlakat hukumati va aholi nazorat qilishi imkonsiz masala, ammo tabiatni hodisalarini, xavfning mavjudligini o'rganish katta muammolardan xalqni asrab qolishi mumkin. Yong'in, qurg'oqchilik kabi muammolarni muqobil yechim bilan yechish orqali, inflyatsiya darajasini me'yorida ushlab turishga atrof-muhit omili hissa qo'shishi mumkin.

Xulosa

Argentinadagi pandemiyadan keyin avj olgan yuqori inflyatsiyada siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, atrof-muhit, huquqiy omillar muhim rol o'ynaydi va yuqori inflyatsiyada hissasi katta. Pulning qadrsizlanishi natijasida narxlar va aholining norozichilik harakati juda baland. Shu sababli ham hukumat bozor qoidalariga aralashuvini kamaytirishi va tashqi investitsiyalarga erkin sharoitlar yaratib berishi zarur. Yuqori inflyatsiya darajasi mamlakatning xalqaro maydondagi obro'sini ham tushirib yuboradi. 2023-yildagi prezident almashinuvidan keyin, turli islohotlar, yangi prezident va Markaziy Bank tomonidan amalga oshirilayotgan bo'lsada, statistik malumotlar, yuqori inflyatsiya jarayonini minimallashtirish uchun yetarli emasligini ko'rsatmoqda. Mamlakat bu muammolarni yechish uchun xalqaro kompaniyalar tomonidan investitsiyalarni jalb etishi, tashqi qarzlarni uzishga intilishi, xalq norozichiliklarini oldini olishi, bozorni qo'llab quvvatlashi va foiz stavkalarini past holatda ushlab turishi zarur. Argentina hukumati quyidagi keltirilgan olti omilga o'z diqqat e'tibotini qaratmasa va muammolarni yechmasa, mamlakat giperinflyatsiya bilan yuzlashishi mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Argentina Markaziy Banki (BCRA) – [Banco Central de la República Argentina] (<https://www.bcra.gob.ar/>)
2. Béland, D., Cantillon, B., Greve, B., Hick, R., & Moreira, A. (2023). Understanding the Inflation and Social Policy Nexus. *Social Policy and Society*, 23(1), 1–13. 2
3. Bloomberg Argentina Iqtisodiy tahlillari – [Bloomberg] (<https://www.bloomberg.com/>) Cambios en la dinamica inflacionaria de la Republica Argentina (2004-2020), Un analisis a traves del filtro de Kalman, Ernesto Gabriel Pizarro Levi
4. <https://curlytales.com/argentina-flash-floods-death-toll-rises-to-16-2-girls-still-missing/>
5. <https://www.imf.org/en/Publications/WEO/Issues/2023/04/11/world-economic-outlook-april-2023>
6. <https://www.imf.org/en/publications/weo><https://www.ceicdata.com/>
7. IMF (Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi) – Argentina makroiqtisodiy prognozlarini: (<https://www.imf.org>)
8. Jahon banki – [World Bank Data] (<https://dat>Béland, D., Cantillon, B., Greve, B., Hick, R., & Moreira, A. (2023). Understanding the Inflation and Social Policy Nexus. *Social Policy and Society*, 23(1), 1–13. 2Béland, D., Cantillon, B., Greve, B., Hick, R., & Moreira, A. (2023). Understanding the Inflation and Social Policy Nexus. *Social Policy and Society*, 23(1), 1–13. 2a.worldbank.org/)
9. Reuters Argentina yangiliklari – [Reuters](<https://www.reuters.com/>)
10. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi – [IMF World Economic Outlook] (<https://www.imf.org/en/Publications/WEO>)